



**Pedagogik
kreativlik**

Kreativ pedagogikaning mazmuni

Reja:

“Kreativlik” va “Kreativ pedagogika” tushunchalarining mohiyati.

Kreativ pedagogikaning asosiy kategoriyalari.

Kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.


Tayanch tushunchalar: *kreativlik, pedagogika, “Kreativ pedagogika” fani, fanning maqsadi, fanning vazifalari, fanning ob’ekti, fanning predmeti, fanning tarkibiy tuzilmasi, fanning asosiy kategoriyalari, Kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, ilmiy-tadqiqot metodlari.*

1. “Kreativlik” va “Kreativ pedagogika” tushunchalarining mohiyati.

- Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi.



- Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur‘ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi.





Ko‘plab tadqiqotlarda **intellekt va kreativlik** o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar (Kim, 2005 y.).

“**Kreativlik**” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). **Sharqliklar** esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

- **Kreativ fikrlash** har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilgan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.
- **Pedagogik kreativlik** – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati





“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:



o`qituvchilar tomonidan o`quv fanlarini past o`zlashtirayotgan va ularni o`rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e`tiborlarini fan asoslarini o`zlashtirishga jalb etish;



o`qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag`batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

3. Kreativ pedagogikaning asosiy kategoriyalari.

Har qanday fan singari “Kreativ pedagogika” fani ham o‘zining tarkibiy tuzilmasiga ega. Ushbu fan quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

kreativ ta’lim asoslari: maqsadi, vazifalari, ob’ekti, predmeti, sub’ektlari, mazmuni, metodologiyasi, shakllari, metodlari, vositalari, metodikasi va texnologiyalari;


malakali karlarni tayyorlash va ular tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kreativ shaxsni shakllantirish **bosqichlari**

Kreativ pedagogikaning umumiy mohiyati uning konseptual holatlarini ifodalovchi bir qator tushunchalar asosida ochib beriladi. Ular quyidagilardan iborat:


Ijodkorlik - muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi

Ijodkor shaxs - ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs



Kreativ shaxs - jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandamoyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari rt usullar bilan yondasha olishga surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs



Bunyodkor shaxs - ham jarayon, ham natija sifatida ob'ektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs



Kreativ shaxsni tayyorlash - ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni

- 
- ▶ **Ijod** – ijtimoiy sub’ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.
 - ▶ **Ijodkor shaxsni tarbiyalash** – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g‘oya, ularni amalga oshirish ko‘nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish
 - ▶ **Kasbiy-ijodiy faoliyat** – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati hal qilish
 - ▶ **Ijodiy topshiriqlarga yo‘naltirilgan masalalar tizimi** – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida
 - ▶ **Kasbiy-ijodiy imkoniyat** – 1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik; 2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o‘zlashtirganlik;
 - ▶ ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi;
 - ▶ kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi
- 

1

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi - ijodkorlikning jarayon va natija sifatida ob'ektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko'rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta'limot

2

Ijodiy tafakkur - tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi

3

Kreativ qobiliyat - shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligig a erishishni ta'minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati uning natijalanganligin i baholashda namoyon bo`ladigan individual xususiyati

4

Ijodiy qobiliyat - ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va

5


O'zini o'zi ijodiy faollashtirish - shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi



4. “Kreativ pedagogika”ning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.



Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Shu bilan birga “Kreativ pedagogika” fani bir qator ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi masalalarini tadqiq etadi (2-rasm):

- **5. Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.**
- Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni, natijalari hisobiga ta’minlanadi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob’ekti va sub’ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik va aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega jarayon.


- Zamonaviy sharoitda “Kreativ pedagogika” tomonidan kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish yo‘lida quyidagi pedagogik ilmiy tadqiqot metodlardan foydalanilmoqda (3-rasm):



- 
- Quyida mazkur metodlarning mohiyati to‘g‘risida qisqacha so‘z yuritiladi.
 - **Suhbat metodi** pedagogik kuzatish chog‘ida talabanning kreativlikka oid bilimlarini boyitish, vaziyatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub’ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat **indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda** o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida talabalarning kreativlik imkoniyatlari to‘la namoyon bo‘lishiga erishish muhim.
- 



- **Pedagogik tahlil.** Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan shaxs tomonidan kreativlik sifatleri, imkoniyatlari va malakalarining o‘zlashtirish darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, pedagog tomonidan ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyiligini asoslashga xizmat qiladi.
- **Pedagogik-psixologik tashxis metodlari.** Bu kabi metodlar shaxsning kreativlik sifatleri va ijodiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalariga egaligini tashxislash hamda baholashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda shaxsning kreativlik sifatleri, ijodiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalariga egaligini tashxislashda o‘nlab metodlar qo‘llanilmoqda. Ular orasida bir guruh metodlar amaliy jihatdan samarali bo‘lib, ular rivojlangan xorijiy mamlakatlarda keng qo‘llanilmoqda. Gauenaning “Zahiraviy model”, Slosson testi, Vekslerov shkalasi. Vekslerov shkalasi (“WPPSI” testi), boshlang‘ich maktablar uchun mo‘ljallangan Stanford testi hamda Torrens testlari (jumladan, “Tugallanmagan rasmlar testi) shular jumlasidandir.



-
- **Pedagogik tajriba** (lot. “eksperiment” – “tajriba qilib ko‘rish”) metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in’ikosiga ega bo‘la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Pedagogik tajribaning quyidagi **turlari** mavjud (4-rasm):



- **5. Anketa (fr. “tekshirish”) metodi**
yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Metod tizimli savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Savollarga javoblar, odatda, yozma shaklda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketalar quyidagicha bo‘ladi: 1) ochiq savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar)ga ega; 2) yopiq savollar (“ha”, yo‘q”, “ijobiy”, “salbiy” va h.k. tarzdagi javob variantlarini tanlashga imkon beradigan savollar)ga ega anketalar.



- **Pedagogik kuzatish** metodini qo‘llashda ta‘lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq tahlil qilinadi. PK murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta‘lim-tarbiya sifatini oshirish, shaxsda kreativlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.
- **Pedagogik kvalimetriya** ta‘lim sifatini nazorat qilish va samarali boshqarish maqsadida qo‘llaniladi. Bunda turli darajadagi testlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish (keyslarni yechish) asosida shaxsning kreativlik sifatleri va ijodiy faoliyatni tashkil eta olish ko‘nikmalariga egaligi, ularning darajasi o‘rganiladi hamda baholanadi.
-
- **Bola (talaba)lar ijodini o‘rganish metodi** talabalarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma‘lum fan sohalari bo‘yicha BKM darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari – ikki varaqli kundalik, insho, yozma ish, kichik esse, referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari, pedagogik amaliyot hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metod ma‘lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.



- **9. Ekspert baholash** metodi zamonaviy sharoitda deyarli barcha sohalara olib boriladigan tajribalarda jarayonida qoʻllaniladigan va keng ommalashgan ilmiytaqiqot metodlardan biri sanaladi. Koʻp holatlarda shaxsda kreativlik sifatleri va ijodiy faoliyat koʻnikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash psixolog, pedagog va bevosita kreativlikka dahldor sohalarning vakillari malakali mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladi.
- Ammo taʼlim jarayonida hamkorlik taʼlimi tamoyillariga muvofiq talabalarning oʻrtasida ham ularning oʻquv topshiriqlarini bajarishga nisbatan kreativ yondashuvlarining samaradorligini baholash maqsadida ekspert guruhi shakllantirilishi ham mumkin. Bu guruh talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy mahsulotlar va ularning sifatini baholaydi.



-
- **Nazorat savollari:**
 - “Kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
 - “Kreativ pedagogika”ning maqsadi nimadan iborat va u qanday vazifalarni hal qiladi?
 - “Kreativ pedagogika”ning ob’ekti va predmetini nima tashkil etadi?
 - “Kreativ pedagogika”ning asosiy kategoriyalari qaysilar?
 - “Kreativ pedagogika” qanay fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi?
 - Kreativ shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda qanday ilmiy tadqiqot metodlari qo‘llaniladi?

- **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб.: SPGUTD, 2006.
- Башина Т.Ф., Илин Ye.P. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.
- Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. 4. Sirotiyuk F.S. Diagnostika odaryonnosti / Ucheb.posobie. – M.: DirektMedia, 2014. – 1229 s.
- 5. Utyomov V.V., Zinkovkina M.M., Gorev P.M. Pedagogika kreativnosti: prikladnoy kurs nauchnogo tvorchestva / Ucheb.posobie. – Kirov: ANOO “Mejregionalno‘y sITO”, 2013. – 212